Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Болинджер Д. Истинная проблема лингвистики/Азы и моделирование социального взаимодействия. По ред. В.В.Петрова. М., "Прогресс", 1987, с. 23–43; Bolince D. 1987, 29–30 с.

(2). Бодалев А.А. Восприятие и понимание человека человеком. М., изд-в Моск. ун-та, 1982, с. 199, 1982, с.7.

(3). Залевская А.А. Индивидуальное знание. Специфика и принцип функционирования. Тверь, изд-в Тверск. ун-та, 1992, 135 с.

(4). Залевская А.А. Слово в лексиконе человека: психолингвистическое исследование / А.А. Залевская. - Воронеж: Изд-во Воронеж, гос. ун-та, 1990.

(5). Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. Москва : Флинта, Наука, 2002.

(6). Залевская, А.А. (2001). Психолингвистический подход к проблеме концепта. В кн. И.А.Стернина (Эдс.). Методологические проблемы когнитивной лингвистики, 36–44. Воронеж, издательство Воронежского государственного университета [Methodical problems of cognitive linguistics].

Nurmetov Jasurbek Nurmuxamatovich (Urganch davlat universiteti 1-kurs doktoranti)

TARJIMADA REALIYA

Annotatsiya. *Quyidagi maqola tarjimaning eng qiyin muammolaridan biri, ya'ni realiya tarjimasi haqida. Maqolada, birinchi navbatda, realiyaga berilgan turli xil ta'riflar va atoqli otlar tarjimasi masalalari yoritilgan, so'ngra realiyani bir tildan boshqa tilga qanday tarjima qilish bo'yicha ba'zi takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *realiya, atoqli otlar, begonalashtirish, mahalliylashtirish, saqlash, qo'shish, tashlab ketish, globallashuv, mahalliylashtirish, o'zgartirish, yaratish, transliteratsiya, transpozitsiya.*

Нурметов Джасурбек Нурмухаматович (аспирант 1 курса Ургенчского государственного университета)

РЕАЛИИ В ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. *В данной статье речь идёт об одной из основных проблем переводоведения-трудностях перевода реалий. Рассматриваются в первую очередь вопросы перевода имён собственных и описания реалий. Предложены рекомендации по переводу реалий с одного языка на другой.*

Ключевые слова: *реалии, имена собственные, форенизация, одомашнивание, сохранение, дополнение, опущение, глобализация, локализация, трансформация, создание, транслитерация, транспозиция.*

Nurmetov Jasurbek Nurmukhamatovich (1st-year PhD student of Urganch State University)

REALIA IN TRANSLATION

Annotation. *The following article is about one of the most challenging problems of translation that is translation of realia. It firstly deals with definitions of realia and translation issues concerning proper names and then offers some solutions on how to translate realia from one language into another.*

Keywords: *realia, proper names, foreignization, domestication, preservation, addition, omission, globalization, localization, transformation, creation, transliteration, transposition*

Kirish. Ko'pchilik olimlar aytganidek, "Tarjima – bu san'at". Ushbu san'atning ustasi bo'lish uchun tarjimonlar milliy xos so'zlarni juda yaxshi bilishlari kerak. Florin ta'kidlaganidek, realiya mahalliy yoki tarixiy rangni ifodalash orqali matnga madaniy lazzat beradi. U bu atamaga quyidagicha ta'rif bergan: "Realia (lotincha realis) – bir xalqning turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotiga xos bo'lgan, boshqa xalqqa begona narsa va tushunchalarni bildiruvchi so'zlar va so'z birikmalaridir. Ular mahalliy yoki tarixiy rangni ifodalaganligi sababli, ularning boshqa tillarda aniq ekvivalenti yo'q" [1;122–128-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'pgina olimlar madaniyatga xos so'zlar, ularning xususiyatlari, tarjima muammolari va strategiyalari bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazdilar, ular, odatda, milliy xos so'zlar tasvirlash uchun turli atamalar taklif qilishgan. Masalan, Nida (1945) ularni "madaniy xorijiy so'zlar", Vlaxov va Florin (1970) "realiya", Nida va Reybern (1981) "taxminiy so'zlar", Nyumark (1988) "madaniy so'zlar", Oksaar (1988) "cultureme", Beyker (1992, 1995) "madaniyatga xos tushunchalar", Foreman (1992) "madaniy ma'lumotnomalar", Nedergaard-Larsen (1993) "madaniyat bilan bog'liq muammolar", Leppihalme (1995) "madaniy zarbalar", Franko Aixela (1996) "madaniyatga xos narsalar", Robinson (1997) "madaniyatga bog'liq hodisalar", Mayoral va Munoz (1997) "madaniy jihatdan belgilangan segmentlar", Davies (2003) "Madaniyatga xos narsalar", Hagfors (2003) "madaniyatga bog'liq elementlar", Pedersen (2005, 2007, 2010) "ekstralingvistik madaniyat ma'lumotnomalari", Ramiere (2006) "madaniyat-

ga xos havolalar" kabi atamalarni ishlatishgan. Ushbu maqolada biz realiyani "madaniy iste'mol qilinadigan so'zlar" deb ta'riflashni taklif qilamiz, chunki bu so'zlar madaniyatning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Milliy xos so'zlarni to'liq anglab yetishimiz uchun, birinchi o'rinda, o'sha madaniyatni chuqur o'rganishimiz lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada biz milliy xos so'zlarni tarjima qilishda kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarni va tarjimadagi yo'qotishlarni o'rganish uchun qiyosiy tahlil metodidan foydalandik.

Tahlil va natijalar. Ko'pchilik olimlar realiyaga juda uzoq ta'rif berishsa-da, biz tilshunoslikda atamalarni qisqartirishga harakat qilishimiz va madaniyatga xos so'zlarni global miqyosda tavsiflash uchun bitta atamani qabul qilishimiz kerak deb hisoblaymiz. Agar biz bitta obyektni turli yo'llar bilan va turli atamalar bilan atasak, ular olimlar o'rtasida tushunmovchilikka olib kelishi mumkin. Misol uchun, Davies (2003) va Franko Aixela (1996) "Madaniyatga xos narsalar" atamasini berishgan, ammo bizning nuqtayi nazarimizdan, ular bu yerda qisman xatolikka yo'l qo'yishgan, chunki "narsa" so'zini tushunish biroz qiyin. Gergana Apostolova yakka tartibdagi nomlarni tarjima qilishda e'tiborga olish kerak bo'lgan turli jihatlarga ishora qiladi: Tarjimada nomlarning o'zgarishi tarjimonning fonetik va fonologik kompetensiyasi, morfologik kompetensiyasi, kontekstni to'liq tushunishi, unga to'g'ri munosabati bildirishi lozim.

Realiya tarjimasi. Turli olimlar realiyani tarjima qilish uchun turli strategiyalarni taklif qilishgan. Keling, ulardan ba'zilarini tahlil qilamiz, keyin o'z strategiyamizni taklif qilamiz. Olimlarning o'ziga xos ismlar haqidagi ta'riflari – "O'ziga xos ismlar tavsiflovchi bo'lmasligi mumkin, lekin ular ma'lumotga ega emasligi aniq" [9;182–194-b.], Tymoczkoning ta'kidlashicha, tegishli ismlar "irqiy, etnik, milliy va diniy o'ziga xoslikni" ko'rsatadi [11;50–75-b.], Xejvoskiyning ta'kidlashicha, tarjima adabiyotida o'ziga xos nomlar qo'shimcha vazifani bajaradi, ya'ni, "madaniy o'zlik"ning mavjudligini ochib beradi va o'quvchiga matn boshqa madaniyatda paydo bo'lganligidan dalolat beradi [5;93–100-b].

Realiyalarni tarjima qilishning turli strategiyalari. Daviesning fikriga ko'ra, realiyalarni tarjima qilishda tarjimon yettita strategiyadan foydalanishi mumkin: preservation, addition, omission, globalization, localization, transformation and creation.

"Preservation" bu tarjimon atamani qo'shimcha tushuntirishlarsiz to'g'ridan to'g'ri tarjima qilishi. [1;65–100-b.]. "Addition" tarjimon "asl elementni saqlashga qaror qilganda, lekin matnni zarur deb topilgan har qanday ma'lumot bilan to'ldirishga qaror qilganda sodir bo'ladi [1;65–100-b.].

"Omission" tarjimada matnning biron qismini butunlay tashlab ketishdir [1;65–100-b.]. Daviesning navbatdagi strategiyasi "globalization" bo'lib, bu madaniyatga xos atamalrni neytral yoki umumiy bo'lgan atamalar bilan almashtirish jarayonidir [1;65–100-b.]. "Localization" tarjimonlarning matnni auditoriya madaniyatiga bog'lashga harakat qilishidir [1;65–100 p.]. "Transformation" milliy xos so'zlarni fonologik va grammatik moslashuvidir. Devisning oxirgi strategiyasi "creation"deb ataladi va tarjimada qat'iy yoki butunlay farq qiladigan yoki u yerda mavjud bo'lmagan atamalarni yaratishni anglatadi [1;65–100-b.].

Teo Hermansning fikricha, ismlarni tarjima qilishning kamida to'rtta strategiyasi mavjud. «Ularni nusxalash mumkin, ya'ni, maqsadli matnda xuddi manba matndagidek takrorlanishi mumkin. Ular transkripsiya qilinishi, imlo, fonologiya va hokazolar darajasida transliteratsiya qilinishi yoki moslashtirilgan bo'lishi mumkin [6;112–156-b.].

Farzanna Farahzodning ta'kidlashicha, shaxsiy nomlarni tarjima qilishda transliteratsiya va transkripsiya qo'llaniladi [2;56–89-b.].

Linkoln Fernandes milliy xos so'zlarni tarjima qilishning o'nta usulni sanab o'tgan [3;10–45-b.]. Bular rendition, copy, transcription, recreation, substitution, deletion, addition, transposition, phonological replacement, conventionality [3;10–45-b.].

Heikki Särkkäga ko'ra esa milliy xos so'zlarni tarjima qilishning to'rtta strategiyasi mavjud [10;8–25-b.]:

- ular to'liq bir tildan ikkinchi tilga ko'chirilishi mumkin;
- ular qisman ko'chirilishi va qisman tarjima qilinishi mumkin;
- ularni turli nomlar bilan almashtirish mumkin;
- ulardan butunlay voz kechish mumkin.

Van Coillining o'nta strategiyasi [12;123-b.]:

1) reproduksiya – milliy xos so'zlarni o'zgarishsiz qoldirish;

2) tarjima qilinmaydigan yoki qo'shimcha tushuntirish – izoh shaklida yoki matnning o'zida tushuntirishlarni qo'shish;

3) kishi ismning umumiy ism bilan almashtirilishi;

4) o‘rganilayotgan tilga fonetik yoki morfologik moslashish;

5) eksonim – ismni o‘rganilayotgan tildagi o‘xshashi bilan almashtirish;

6) manba madaniyatidan kengroq ma’lum bo‘lgan so‘z yoki bir xil funktsiyaga ega xalqaro miqyosda ma'lum so‘z bilan almashtirish;

7) almashtirish – realiyani boshqa so‘zlar bilan almashtirish;

8) muayyan ma’noga ega bo‘lgan nomlarning tarjimasi;

9) milliy xos so‘zlarni boshqa yoki qo‘shimcha atamaga almashtirish;

10) o‘chirish – barcha realiyalarni tashlab qo‘yish.

Nyumark quyidagi strategiyalarni taklif qiladi [8;47–110 p.]:

Transference–tarjimada milliy xos so‘zlarning o‘zgarmagan holda o‘tkazilish jarayonini bildiradi.

Recognized translation – tarjimada milliy xos so‘zlarning boshqa rasmiy nom bilan tarjima qilish jarayonini bildiradi.

Functional equivalent – xorijiy tildagi so‘zni madaniy neytral so‘z yoki o‘sha so‘zning funksional xususiyatlariga ishora qiluvchi so‘zlar to‘plami bilan tarjima qilish jarayonini bildiradi.

Descriptive equivalent – bu bir tildagi so‘zni madaniy neytral so‘z yoki o‘sha so‘zni tavsiflovchi so‘zlar to‘plami bilan tarjima qilish jarayonini bildiradi.

Couplet–bu functional equivalent va descriptive equivalentlarni birlashtirish jarayonga ishora qiladi.

Bizning fikrimizcha, matnni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda, o‘quvchilar, til o‘rganuvchilar va kitobxonlar matnni yaxshi bilishlari va to‘liq tushunishlari uchun matndagi realiyalarga ta’rif berishimiz kerak. Misol uchun, ular Ganaga (G‘arbiy Afrikadagi Kot-d’Ivuar va Togo o‘rtasidagi davlat) qarindoshlarini ko‘rish uchun borishdi yoki ular Ganaga qarindoshlarinikiga borishdi (Sahifaning pastki qismida G‘arbiy Afrikadagi Kot-d’Ivuar va Togo o‘rtasidagi davlat).

Ba’zan, til o‘rganuvchilarda yoki kitobxonlarda realiya tufayli matnni to‘liq tushunishda to‘siqlar paydo bo‘ladi, chunki ular matndagi barcha realiyalarni bilishmaydi. Ular shunchaki har qanday matnni, ayniqsa, adabiy asarlarni o‘qishni xohlashadi, bu holda ular uchun ma'noni yaxshi tushunish qiyin yoki ular realiya turlarini ajrata olmasligi mumkin. Masalan, bitta so‘z ism yoki familiya, tashkilot nomi yoki brend nomi yoki hayvonning nomi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun biz, tarjimonlar har doim iste’molchilarimizga tarjima qilayotgan har qanday matnning aniq tarjimasini taqdim etishimiz va tarjimada ma’no yo‘qolishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilishimiz kerak.

Maqolamizda ko‘plab strategiyalarni muhokama qilib, biz yagona strategiyani barcha turdagi realiyani to‘g‘ri tarjima qilish uchun ishlatib bo‘lmaydi, degan xulosaga keldik. Demak, tarjima jarayonida tarjimonlar kerakli strategiyalarni bilishlari va ulardan to‘g‘ri ma’noda foydalanishlari kerak. Bitta strategiya antroponimlar uchun juda yaxshi ishlashi mumkin, biroq u toponimlar uchun ishlamasligi mumkin. Shuni hisobga olgan holda, biz tarjimonlarga quyidagilarni e'tiborga olishlarini taklif qilamiz:

- matn turi (ilmiy, texnik, lingvistik yoki adabiy);
- auditoriya (ularning qiziqishlari, yoshi, madaniy kelib chiqishi).

Xulosa. Yuqorida aytib o‘tilgan fikrlardan xulosa chiqargan holda, shuni aytishimiz mumkinki, milliy xos so‘zlar tarjimonlar uchun to‘siq bo‘lishi mumkin, ammo, agar ular ham tilshunoslik va madaniy jihatdan yaxshi ma’lumotga ega bo‘lsalar (ikkita tilning ham madaniyatini yaxshi bilsalar va realiyalarni yaxshi bilsalar), ular uchun tarjima qilish yoki talqin qilish ancha oson bo‘ladi. Bundan tashqari, realiyani tarjima qilishda tarjimonlar tarjima usullaridan foydalanishda moslashuvchan bo‘lishi kerak, xususan, ular auditoriyaning ijtimoiy va madaniy kelib chiqishi, qiziqishlari, yoshi va boshqa muhim omillarni hisobga olishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Davies, E.E., 2003. A Goblin or a Dirty Nose? The Translator: Studies in Intercultural Communication, 9 (1), p. 65–100.

(2). Farahzad, F. (1995). Tarjome pishrafteh (1). [Translating advanced English text (1)]. Tehran, University of Payame Nour, p. 56–89.

(3). Fernandes, L. (2006). Translation of names in children’s fantasy literature: Bringing young reader into play, p.10–45.

(4). Florin, Sider 1993. “Realia in translation”. I.n Zlateva, Palma (ed.), Translation as Social Action. Russian and Bulgarian Perspectives. London, Routledge, p. 122–128.

(5). Fornalczyk, A., 2007. Anthroponym Translation in Children’s Literature – Early 20th and 21st Centuries. Kalbotyra, 57 (3), p. 93–100.

(6). Hermans, T. (1988). On translating proper names, with reference to De Witte and Max Havelaar. In M. J. Wintle (ed.) Modern Dutch Studies. Essays in Honour of Professor Peter King on the Occasion of his Retirement. London/ Atlantic Highlands: The Athlone Press, p. 112–156.

(7). Hervey, S. and Higgins, I. (1992). Thinking Translation. London and New York, Routledge, p. 166–190.

Sadikova Dildora Nizomovna (Navoiy davlat universiteti "Ingliz tili amaliy kursi" kafedrasi o'qituvchisi; dilya.sadikova@list.ru)

INTERTEKSTUALLIK KATEGORIYASI VA ULARNING TAHLILI: ALLUZIYA, SITATA, RAMZ

Annotatsiya. *Ushbu maqola postmodernizm adabiyotida keng uchraydigan intertekstuallikning (ya'ni matnlararo ma'noviy bog'lanish) kategoriyalari bo'lmish alluziya (talmeh) iqtibos va ramziylikning turlari va ular misollar asosida tahlil qilingan. Matnlardagi o'zaro ma'noviy bog'liqlik bilvosita ushbu kategoriyalar asosida amalga oshirilib, nozik ishora berish, turli ramzlarning bir ma'noda kasb etishi va keltirilgan sitatalar matnga yanada o'zgacha kuch berishi ta'kidlab o'tilgan va tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *interstektuallik, alluziya, sitata, ramzlar.*

Садикова Дильдора Низомовна (преподаватель кафедры практического курса английского языка Навоийского государственного университета; dilya.sadikova@list.ru)

КАТЕГОРИИ ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ И ИХ АНАЛИЗ: АЛЛЮЗИЯ, ЦИТАТА, СИМВОЛ

Аннотации. *В данной статье на основе примеров анализируются виды аллюзии (тальме), цитирования и символизма, представляющие собой категории интертекстуальности (духовной связи между текстами), распространенные в литературе постмодернизма. На основе этих категорий косвенно реализуется смысловая взаимосвязь в текстах, подчеркивается, что тонкие намеки, приобретение разных символов в одном и том же значении, цитируемые цитаты придают тексту особую силу.*

Ключевые слова: *интертекстуальность, аллюзия, цитата, символы.*

Sadikova Dildora Nizomovna (Navoi State University, Department of Practical English Course; assistant teacher; dilya.sadikova@list.ru)

CATEGORIES OF INTERTEXTUALITY AND THEIR ANALYSIS: ALLUSION, QUOTATION, SYMBOLISM

Annotation. *This article analyzes the categories of intertextuality – namely, allusion (talmeh), quotation, and symbolism–that are widely found in postmodern literature. It examines their various types and provides examples. The mutual semantic connections between texts are established indirectly through these categories, emphasizing how subtle references, the multifaceted meanings of various symbols, and the inclusion of quotations enhance the text's impact and depth.*

Key words: *intertextuality, allusion, quotation, symbol.*

Kirish. Intertekstuallik – bu bir matnni boshqa bir matndan shakllantirish jarayoni bo'lib, o'quvchilar matnlar o'rtasidagi bog'liqlik va o'xshashlikni tushunishlari mumkin.

Intertekstuallik tushunchasi hozirgi kunda filmlar va tasviriy san'atlar shakllarida ham ko'rinadi. Bu nazariyaning ildizlari 20-asr boshlaridagi tilshunoslikdan kelib chiqqan bo'lib, u, avval, boshida faqat adabiy yozuvlarga nisbatan qo'llanilgan. "Intertekstual" atamasini birinchi marta fransuz-bulg'or adabiyot tanqidchisi, yozuvchi Juliya Kristeva 1960-yillarda Baxtinning dialogizm va karnaval haqidagi g'oyalarini tahlil qilish asnosida qo'llagan. Bu atama lotincha *intertexto* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, *to'qish vaqtida aralashtirish* ma'nosini anglatadi. Uning fikriga ko'ra, barcha matnlar *suhbatda* bo'ladi va ularning o'zaro bog'liqliklarini to'liq o'qimasdan anglash qiyin bo'lmaydi yoki tushunish mumkin emas (Abraham M.H, 2014) J.Krestiva nazariyasi asosida intertekstuallik postmodern tahlil va ishlarining asosiy xususiyatiga aylandi. Lekin shunisi ahamaiyatliki, intertekstuallik nazariyasi yaratilganidan ancha avval, uning amaliyoti mavjud bo'lganini esda tutish muhimdir.

Bir matnning boshqa bir matnni keltirib o'tishi, zikr qilishi yoki unga ishora qilishi *intertekstuallik* deb ataladi. Turli matnlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va bog'liqlik, matn ma'nosining boshqa matnlar bilan munosabati tufayli shakllanishi yoki ta'sirlanishi bilan izohlanadi. Yozuvchi yoki shoir turli maqsadlarga ko'ra intertekstuallikdan foydalanishi mumkin. Ularning maqsadiga muvoffiq holda, intertekstuallikni turli yo'llar bilan namoyon qilishlari mumkin. Ular ishoralarni bevosita yoki bilvosita qo'llashlari mumkin. Shuningdek, yozuvchi ishora orqali o'z ilhom manbasini ta'kidlashi, hazil qilish yoki avvaldan nashr etilgan asarni qayta sharhlash maqsadida ham intertekstuallikdan foydalanishi mumkin. Intertekstuallikning